O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi

akad. S.Yu.Yunusov nomidagi O‘simlik moddalari kimyosi instituti

“TASDIQLAYMAN”

O'MKI direktori, t.f.d., prof.

_____ Sh.Sh.Sagdullayev

“20” 01 2022-y

Mutaxassislik yo‘nalisidagi fanlar uchun

14.00.17 - Farmakologiya va klinik farmakologiya ixtisosligi bo‘yicha

tayanch doktoranturaga kirish uchun

IMTIHON SAVOLLARI

Toshkent 2022

1. Farmakologiya fani, maqsadi va vazifalari, tibbiyot hamda biologiyaning boshqa bo‘limlari bilan bog‘liqligi.

2. Ingalyatsion va noingalyatsion narkoz vositalari. Narkoz vositalarining qiyosiy tavsiflari. Ta’sir mexanizmi. Tolerantlik, taxifilaksiya va bekor qilish sindromlari. Narkoz uchun qo‘llaniladigan dori vositalarining nojo‘ya ta’siri va ularni bartaraf etish usullari.

3. M-xolinergik innervatsiyaga ta’sir etuvchi va antixolinesteraz vositalar.

4. Tabiiy alkaloidlarning farmakologik xossalari va ular asosida olingan preparatlar.

5. Dori vositalarining farmakodinamikasi. Retseptorlar va ularning turlari, messenjerlari, ta’sir mexanizmi, selektivligi, ekzogen va endogen ligandlarning turli retseptorlariga yaqinligi, stereoizomerlar, to‘liq va qisman agonistlar va antagonistlar, nishon organlar va hujayralar, dorilarning farmakodinamik o‘zaro ta’siri.

6. Etil spirti va alkogolga qarshi preparatlar. Etil spirtining markaziy asab tizimiga ta’siri. Etil spirti bilan o‘tkir va surunkali zaharlanish hamda uni davolash. Apomorfin, emetin, teturamning ta’sir qilish mexanizmlari. Aldegiddegidrogenaza va uning alkogolizm patogenezida ishtiroki.

7. N-xolinergik agonist va antogonistlar.

8. Tabiiy terpenoidlarning farmakologik xossalari va ular asosida tayyorlangan preparatlar.

9. Dori vositalarining ta’sir turlari: mahalliy, rezorbtiv, to‘g‘ridan-to‘g‘ri, refleksli, qaytar (vaqtincha), qaytmas (barqaror), selektiv.

10. Sedativ va uxlatuvchi vositalar. Tasnifi. Farmakokinetikasi, dorilarning o‘zaro ta’siri. O‘tkir va surunkali dissomniyalarning farmakoterapiyasi.

11. O‘tkir va surunkali zaharlanishlarda birinchi yordam.

12. Afferent innervatsiyaga ta’sir ko‘rsatuvchi dori vositalari.

13. Dori vositalarini qo‘llaganda yuzaga keladigan nojo‘ya ta’sirlar.

14. Narkotik analgetiklar. Og'riq hissi shakllanishining markaziy mexanizmlariga

ta'siri. Opioid retseptorlari va ularning endogen ligandlari. Analgetiklar-oligopeptidlarning hosilalaridir. Narkotik analgetiklarning antagonistlari, ularning qo‘llanilishi. Boshqa guruh dori vositalari bilan birgalikda qo‘llaganda o‘zaro ta’sirlari.

15. Angiotenzinga aylantiruvchi ferment ingibitorlari, ularning tasnifi, qo‘llanilishi.

16. α-adrenergik innervatsiyaga ta’sir ko‘rsatuvchi dori vositalari. α-adrenomimetik va adrenoblokarorlar.

17. Kimyoviy moddalarning turli sinflarida "tuzilish-faoliyat" bog'liqligini o'rganish metodikasi, farmakologik moddalarni maqsadli sintezi va skriningi.

18. Nonarkotik analgetiklar va ularning ta’sir mexanizmlari. Og'riq shakllanishining periferik mexanizmlariga ta’siri. Isitma tushiruvchi va yallig‘lanishga qarshi ta’sir mexanizmlari. Asosiy nojo‘ya ta’sirlari.

19. β-adrenomimetik va adrenoblokatorlar tasnifi, ta’sir mexanizmlari. Ularning qo‘llanilishi hamda nojo‘ya ta’sirlari.

20. Antidepressantlar tasnifi, ta’sir mexanizmlari. Ularning qo‘llanilishi hamda nojo‘ya ta’sirlari.

21. Dori vositalarining fitotoksik, embriotoksik, teratogen ta’sirlari. Homiladorlik davrida qo‘llaniladigan dori vositalari.

22. Epilepsiyaga qarshi preparatlarning tasnifi, ta'sir mexanizmi va qo‘llanilishi. Epilepsiyaga qarshi preparatlarni o‘rganish usullari.

23. Simpatolitik dori vositalari. Simpatolitiklarning ta’sir qilish mexanizmi va qo‘llanilishi. Asosiy preparatlarining nojo‘ya ta’sirlari.

24. Anksiolitiktlar tasnifi, ta’sir mexanizmlari. Ularning qo‘llanilishi hamda nojo‘ya ta’sirlari.

25. β-laktam halqasi tutuvchi antibiotiklar. Penitsillin va sefalosporinlar tasnifi, qo‘llanilishi va nojo‘ya ta’sirlari.

26. Parkinsonizmni davolashda qo‘llaniladigan vositalar tasnifi. Farmakodinamikasi, ta’sir mexanizmi va nojo‘ya ta’sirlari.

27. Gipolipidemik dori vositalari, guruhlari, ta’sir mexanizmi va nojo‘ya ta’sirlari.

28. Antiagregantlar tasnifi, qo‘llanilishi va nojo‘ya ta’sirlari.

29. Dori vositalarini tanlashda farmakologik tekshirishlarning ahamiyati va ularni dozalashning ratsional rejimini aniqlash (dozalari - bir martalik, sutkalik, kurs; foydalanish chastotasi). Terapevtik ta’sir kengligi, minimal va maksimal dozalar haqida tushuncha.

30. Psixotrop dori vositalari. Tipik va atipik antipsixotiklar, tasnifi, ta'sir mexanizmlari hamda nojo‘ya ta’sirlari.

31. Antifibrinolitik vositalar tasnifi, ta’sir mexanizmi va qo‘llanilishi

32. Sintetik antibakterial dori vositalari tasnifi va qo‘llanilishi.

33. Dori vositalarining farmakokinetikasi. Dori vositalarining biotransformatsiyasi, tarqalishi, metabolizmi va chiqarilishi. Farmakokinetik jarayonlarni matematik modellashtirish usullari.

34. Xoliergik mediatorlarning tuzilishi, Asetilxolin mediatorining hosil bo‘lishi. Antixolinesteraz vositalarini qo‘llash uchun ko‘rsatmalar. Fosfoorganik birikmalar bilan zaharlanganda birinchi yordam.

35. Aritmiyaga qarshi dori vositalarining tasnifi, ta’sir mexanizmlari va qo‘llanilishi.

36. Geparin va past molekulali geparinlarning qo‘llanilishi. Davolash jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan nojo‘ya ta’sirlari.

37. Farmakologik moddalar xavfsizligini o'rganish - toksikologik tadqiqotlar. Dori toksikologiyasida doza-vaqt-ta'sir munosabatlari. Potentsial dori vositalarining toksikligini va ularning tayyor dozalash shakllarini hayvonlarda o'tkir va surunkali tajribalar sharoitida o'rganish usullari, toksiklikning o'ziga xos turlarini va qaytmas nojo'ya ta'sirlarni (mutagenlik, embriotoksiklik, teratogenlik, reproduktiv funktsiyaga ta'siri, allergen ta'siri, immunotoksiklik, kanserogenlik va boshqalar) baholash.

38. Yallig‘lanishga qarshi dori vositalari tasnifi. Ta’sir mexanizmlari. Qo‘llanilishi va nojo’ya ta’sirlari.

39. Fermentativ preparatlar. Qo‘llash uchun ko‘rsatmalar. Koenzim preparatlari. Proteolitik ferment ingibitorlari. Fibrinoliz ingibitorlari. Monoaminoksidaz ingibitorlari. Ferment reaktivatorlari. Ferment preparatlarini o‘rganish usullari.

40. Antigistamin preparatlari tasnifi, qo‘llanilishi va nojo‘ya ta’sirlari.

41. G-oqsillari tasnifi. Ularning dori preparatlarining ta’sir mexanizmlariga tutgan o‘rni va ahamiyati.

42. Sedativ dori vositalari tasnifi. O‘simlik asosida olinadigan sedativ preparatlar va ularning qo‘llanilishi.

43. H_2-gistamin blokatorlari tasnifi, ta’sir mexanizmi, qo‘llanilishi va nojo‘ya ta’sirlari.

44. Toj tomirlar yetishmovchiligida qo‘llaniladigan dori vositalari tasnifi va qo‘llanilishi. Antianginal dori vositalarining ta’si mexanizmi.

45. Dori vositalarining o‘zaro sinergizm va antogonizm xususiyatlari. Ushbu xossalarning odam organizmi uchun ahamiyati va nojo‘ya ta’sirlari.

46. Adrenalin va noradrenalinning asosiy umumiy va o‘ziga xos farqli belgilari. Alfa va beta-adrenomimetiklarning yurak-qon tomir tizimiga, silliq mushaklarga, metabolizmga, markaziy asab tizimiga ta'siri.

47. Steroid strukturali gormonal preparatlar. Estrogen va gestogen preparatlari. Kontraseptiv vosita sifatida foydalanish. Androgenlar. Qo‘llash uchun ko‘rsatmalar. Nojo‘ya ta’sirlari.

48. Proton pompa ingibitorlari tasnifi, ta’sir mexanizmi, qo‘llanilishi va nojo‘ya ta’sirlari.

49. Dori vositalarining klinik samaradorligi va qaytmas nojo‘ya ta’sirlar ehtimolini hisobga olgan holda, farmakokinetik tadqiqotlar o‘tkazish va dori vositalarining (ayniqsa, tor terapevtik indeksli dori vositalari) konsentratsiyasini monitoring qilishning asosiy tamoyillari.

50. Nootrop dori vositalarining farmakodinamikasi, qo‘llashga ko‘rsatmalar. Nojo‘ya ta’sirlari.

51. Charchoqni bartaraf etish va jismoniy ish faoliyatini tiklash uchun farmakologik vositalar. Jismoniy kuchdan keyin tiklanish davrining fizik va biokimyoviy asoslari. Jismoniy mashqlar va tiklanish davrida glyukoneogenezning roli. Tabiiy va sintetik kelib chiqadigan aktoprotektorlarning ta'sir qilish mexanizmi. Tadqiqot usullari.

52. Gepatoprotektorlar tasnifi, qo‘llanilishi va nojo‘ya ta’sirlari. O‘simliklar asosida olinadigan gepatoprotektorlar.

53. Yangi dori vositalarining olinish manbaalari. Maqsadli sintez jarayonlari nimalarga asoslanadi. Klinik oldi tekshiruv usullari.

54. Mahalliy anestetiklar. Ta’sir mexanizmi va lokalizatsiyasi. Anestetiklarni qiyosiy baholash va ularni turli xil anesteziyalarda qo‘llash. Anestetik moddalarning toksik ta’siri.

55. Vitamin preparatlari. Suvda va yog‘da eriydigan vitamin preparatlari. Qollashsh uchun ko'rsatmalar. Nojo’ya effektlar. Ergokalsiferol, xolekalsiferol. Ularning shakllanish mexanizmi. Kaltsiy va fosfor almashinuviga ta'siri. Tokoferol va uning biologik ahamiyati.

56. Miokard infarktida qo‘llaniladigan dori vositalari ta’sir mexanizmi, nojo‘ya ta’sirlari. Kardiogen shokda birinchi yordam.

57. Kardiotonik dori vositalari: yurak glikozidlari (digoksin, strofantin, digitoksin), glikozid bo‘lmagan kardiotonik preparatlar (dofamin, dobutamin, milrinon va amrinon).

58. O‘sma kasalliklarida qo‘llaniladigan preparatlar tasnifi va ta’sir mexanizmlari hamda kuzatilishi mumkin bo‘lgan nojo‘ya ta’sirlari.

59. Leykopoezga ta’sir qiluvchi vositalar. Leykopoezni rag‘batlantiruvchi vositalar. Leykopoezni ingibirlovchi dorilar.

60. Nafas olish organlariga ta’sir ko‘rsatuvchi vositalar. Yo‘talga qarshi, balg‘am ko‘chiruvchi va bronxolitik dori preparatlari.

61. Mediatorlarning dori vositalari ta’sir mexanizmida tutgan o‘rni va ahamiyati.

62. Diuretik preparatlar tasnifi, ta’sir mexanizmlari, qo‘llanilishi hamda kuzatilishi

mumkin bo‘lgan nojo‘ya ta’sirlari.

63. Gastroprotektor dori vositalari tasnifi va ularning oshqozon shilliq qavatini qayta tiklash va himoyalashdagi o‘rni.

64. Qusish va qabziyatga qarshi dori vositalarining ta’sir mexanizmlari, qo‘llanilishi va nojo‘ya ta’sirlari.